

**ILM-FAN OLAMIDA BUYUK ASTRONOM MIRZO ULUG‘BEK
(MIRZO ULUG‘BEK TRAGEDIYASI)**

Rozimova Gulbahor Sharafatdin qizi

Annotatsiya: Maqolada beqiyos shoir Maqsud Shayxzoda ulug‘ bobokolonimiz Mirzo Ulugbekning hayotini tasavurlar ila gavalantirilishi, nafaqat shoh balki ilmga tashna, ilm yo‘lida o‘zini bag‘ishlashi, halollik va adolatlikka undashi, sodiq do‘st va o‘g‘li Abdulatifning yo‘ldan adashganligi, insonlarni, yosh avlodni hayotga tayyorlashi haqidagi insoniylik tuyg‘ularini boyitib borilgan.

Kalit so‘zlar: Mirzo Ulug‘bek, Abdulatif, tragediya, Ali Qushchi, parda, obraz, tugun, dramatik vaziyat, ajdod, fojia, milliy qadriyat

Kirish.

Bilamizki o‘tmishsiz kelajakni barpo qilib bo‘lmaydi, ya‘ni ajdodlarimiz, buyuk bobokolonlarimiz yaratgan ilmiy merosini o‘rganish biz yoshlarga milliy iftixorni ongimizda aks ettirishimizdir. Tarixga nazar solar ekanmiz, buyuk arboblarimizning qilgan mehnatlari, ilm yo‘lida fidokorona o‘zini bag‘ishlagan siymolarni ko‘ramiz. Ayniqsa bu borada ulug‘ astronom Mirzo Ulug‘bekni tilga olmasak bo‘lmaydi. Hammamizga ma‘lumki, buyuk insonlarning hayotiga qarshi chiqadigan dushmanlari bo‘ladi. Mirzo Ulug‘bek nafaqat dushmanlari tarafidan, balki o‘g‘li tomonidan ham fitna qurboni bo‘ladi. Uning hayotini o‘rganib, umri davomida Mirzo Ulug‘bekning ilmlariga, hayotining fojiali ahvoliga nazar solgan adiblardan biri Maqsud Shayxzodadir. U Mirzo Ulug‘bek hayotini batafsil o‘rganib, uning o‘limi ayanchli tarzda tugashi haqidagi tragediyani yaratadi.

Asosiy qism.

Keling Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” dramasi tahlil qilib bersam. Drama 5 pardali tarixiy fojia, ya‘ni Ulug‘bekning hayoti fojiali tugashini aks ettiradi. U 1960-yilda yaratilgan. Mirzo Ulug‘bek oliy hukmdor, buyuk olim sifatida ko‘p voqealarni o‘z boshidan kechirgan tarixiy shaxsdir. Adibimiz oliy hukmdorning hayotini besh pardali tarixiy fojiaga singdirib bo‘lmaslidini bilib, ushbu tragediyada aynan ikki yo‘nalishdagi voqealarni, aytmoqchimanki saroy ixtiloflari va buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlarini yoritgan [1]. Biz bu asarni o‘rganar ekanmiz, ulug‘ alloma, bir tarafdin qattiqqo‘l, Xurosonni o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun qo‘lidan kelganicha harakat qilishi, ikkinchi tomondan bilimga oshnoligi, fan ahlini jonida ortiq ko‘rishi, ma‘rifatparvar, jahonshumul kashfiyotlar qilgan olim sifatida tasvirlanganini ko‘ramiz. Asar posponlarning suhbat, elchilarning kutib olinishiga tayyorgarlik bilan boshlanadi. So‘ngra Ulug‘bek Chin Mochin, Hindiston, Misr, Farandiston, Rus

davlatidan kelishga elchilar bilan turli mavzuda suhbatlashadi va ularga o‘zining “Yulduzlar jadvali”ni taqdim qilar ekan, shunday deydi:

Bu asarlar uzoq mehnat samarasidir,
Shu jadvalda keltirilga ta’rif va tavsif
Ko’kda bir ming o‘n sakkizta yulduzga oid.
Borib bering shahringizda munajjimlarga
Topganini baham ko‘rar jo‘mard odamlar. [7]

Kitoblarni bir-biriga elchilar tutib, ular bilan qo‘l berib xayrlashadi. Maqsud Shayxzoda bu jarayonni ko‘z bilan ko‘rgan emas, lekin faktlar asosida bu uchrashuvni shunday tasvirlaydi. Dramada Ulug‘bek qiyofasi ko‘proq asardagi boshqa obrazlar orqali: Ali Qushchi, Sakkoniy, Shayxulislom Burhoniddin, Chin, Hind, Farang, Rus elchilari va xorijlik talabalar bilan bo‘lgan muloqotda ilm-fan homiysi, buyuk olim, ma’rifat fidoiysi kabi hislatlari namoyon bo‘lsa, Abdularif Mirzo, uning mahrami Abbas, Qozi Miskin, Xo‘ja Ahror, Sayid Obid kabi saltanat dushmanlari, ig‘vogarlarga nisbatan bo‘lgan munosabatida mutaasiblikka qarshi ashaddiy kurashgan inson sifatida xarakteri ochilgan [2]. Nafaqat tarixiy jarayonlar balki, sharq xalqlarining qadriyatlarini ustoz va shogird an‘analari Mirzo Ulug‘bek va Ali Qushchi oralaridagi samimiy munosabatlar tasvirlangan. Eng sodiq do‘st hisoblanadi Ali Qushchi, hatto Ulug‘bekka hamma xiyonat qilganida bitta Ali Qushchi uni yonida turib, qo‘llab-quvvatlaydi. Tariximizdan ham ma’lumki allomiz Mirzo Ulug‘bek 1449 yil 56 o‘g‘li Adulatif va dushmani Alouddavla tomonidan fitna qurboni, bo‘lib, ayanchli tarzda o‘ldiriladi. Uning vafotidan keyin ilmiy ishlari shogirdlari G‘iyosiddin Koshiy, Oloviddin Ali Ibn Muhammad Qushchilar (dramada Ali Qushchi) tomonidan davom ettirilganligi ma’lum.

Tragediyada vaziyatlar tezkor almashinib turadi: Tinchlik-notinchlikka, osudalik-tahlilikaga, ilmparvarlik-fitna-yu fasodga sabab bo‘ladi, xalqparvarlik-saltanatga qarshi kuchlarning birda oshkor, birda yashirin isyoniga aylana boradi. Avliyo, jasur, mard bobokolanimiz Ulug‘bek buni qanchalar qiyinligini qalban his qiladi. O‘g‘li bo‘lmish Abdulatifning ikkiyuzlamachiligi, kaltafahmliigi, uning yolg‘on-u bo‘htonlar manbaiga aylanishi, padari buzrikvorining obro‘yiga putur yetkazib, shu yo‘l bilan taxtga erishish maqsadi, buvisi Gavharshodbegimning Samarqandga kelib vaziyatlarni chigallashtirishi, nabirasi Abdulatifga “Temur toji sizga ko‘p loyiq” deb uni qo‘llaganday, aslida marhum o‘g‘li Boysunqur Mirzoning farzandi Alouddavlani taxtga o‘tkazish rejasi, “O‘g‘lingni men sulton ko‘rsam, qolmas armonim, Temurbekka voris bo‘lgay Alouddavla!... Yana davlat sohibasi bo‘lurman o‘zim” deya Xo‘ja Ahror bilan bir necha yillardan beri puxta rejalar tuzishi, bu onaning, bu darajada makkoraligiga hayron qoladi [3]. Mana shunday qaltis vaziyatda Ulug‘bekning suyaklarini zirqiratadigan og‘riq-alam iztirobi quyidagicha satrlardan olingan:

Meni tuqqan ona bundoq!

Mendan tug‘ilgan o‘g‘il undoq!

Ey kajraftor falak... uyalgin! [5-4]

Dramaning 5-parda 5-ko‘rinishida voqealar Ota Murodning hovlisiga yuz beradi. Kuz edi, bulut, zulmat nuri qoplagan edi. Bu holat fojihadan darak berardi. Ya‘ni Mirzo Ulug‘bek mamlakatda fitna-yu fasodning tugatilishini istab, qo‘ni-qo‘shni davlatlarga bosqin yasab Temurbek nasliga qarg‘ish va la‘natlar keltirmasligini, arboblarga qasos tig‘i botirilmasligini, madrasa va rasadxonaga zavol yetmasligini, kutubxona va kitoblarni omon saqlanishini, haramdagi ahli ayolining izzat va iffatiga g‘ubor cho‘kmasligini talab qilib, taxdan iste‘fo beradi. Abdulatifning odamlari “Ont ichamiz, ahd etamiz, bahaqqi Xudo” deb rozilik bildiradilar va shu onning o‘zidayoq otasi – Sayid Obidning xuni uchun o‘g‘li Abbosni, Xo‘ja Ahror kabi din nomi bilan ish ko‘ruvchi ikkiyuzlamachi, munofiq, razil, xiyonotkor insonlar yakun yasaydi.

Drama yakunidagi Piri Zindoniyning dil so‘zlari bashariyatning ham dil so‘zlarida jaranglaydi:

Vaosofa, hech kimsadan uyalmay bugun,

Men yig‘layman, yurak-qon bilan yig‘layman!

Yetim qolgan el dardiga kuyib yig‘layman!

Bosh qo‘yaman tuprog‘iga ulug‘ insonning!

Mana 630 yil o‘tdi, lekin ikkinchi bor qomusiy olim Mirzo Ulug‘bek tug‘ilmadi. Insoniyat yashar ekan, Abdulatifning nomi ham “Padarkush” nomi bilan tilga olinaveradi. Maqsad bu xatolarni takrorlamasligimizdadir.

Agar “Mirzo Ulug‘bek” tragrdiyasida Ulug‘bekning nutqiga e‘tibor berilsa, u nihoyatda ma‘rifatli jummalarni ishlatadi. Masalan:

Qalbsiz badan – o‘chgan chiroq, olovsiz tutun.

Agar yurtning fuqarosi tunda uxlamay, faryod tortsa,

Demak shohning vijdoni uxlar...

Biroq inson odatlarning sarhadida qolganda edi,

Kechirishning halovati shirin ming karra.

Bo‘hton nima? G‘ayrilikning qopag‘on iti.

Saltanatki, sultoni yo‘q – boshsiz chavondozi bir tana.

Men shohlikni ma‘rifatga qildim dastyor.

Xurriyat, deb bandilikka ko‘ngan erkinlar

O‘lmay mangu yashar ekan fan haqiqati [5].

Bularning hammasi Ulug‘bekning juda saxiy siymo ekanligini ko‘rsatuvchi dalildir. Uni romantik shaxs deb ham atash mumkin. Uning fan yutuqlarini qadrlashi va odamlarni fan yutuqlaridan bahramand qilishga urinishi, musiqani yaxshi his qilishi, ziddiyatli holatlarda o‘zini bosiqlik bilan ma‘rifatli tutishi, yaqin kishilariga mehribonlik va g‘amxo‘rlik qilishi, zindonga tashlangan mahbuslarning adolatli yoki

adolatsiz jazolanishiga befarq bo‘lmasligi kabi nihoyatda ko‘p insoniy fazilatlar Mirzo Ulug‘bek obrazining nihoyatda mahoratli va mehr bilan yaratilganligini isbotlaydi.

XULOSA

O‘rnida shuni ta‘kidlaymanki, hirs fitna yo‘lida erishilgan g‘alaba uzoqqa bormasligi, ya‘ni Abdulatif otasini o‘ldirib, taxtga o‘tirgandan keyin roppa-rosa 6 oydan keyin u ham taxtdan ag‘dariladi. U bir umr vijdon azobi bilan qiynalib yashaydi, “Padarkush” ya‘ni “Ota qotili” nomi u uchun butun umr tamg‘a bo‘ladi. Maqsud Shayxzoda bu asari bilan insonlarni doim halollikka, adolatlikka undaydi. Hech bir ish bu dunyoda javobsiz qolmasligini, dinimizda ham shunaqa ta‘kidlanadiki, javobsiz qolgan narsa u dunyoda javobini oladi. Agar hamma beguhoh, adolatli bo‘lganda edi, Jannat tepada emas, balki pastda, ya‘ni yerda bo‘lardi. Bu asar faqat fitna qurbonini emas, balki o‘zbek xalqining avlod-ajdodlarining, buyuk an‘anasi, milliy meros bo‘lib o‘tib ketayotgan ilm-fanga oshiqta, madaniyatga talpinish, odob-axloq qoidalarini chuqur o‘zlashtirib hayotga tatbiq etishga intilish, bilimni oshirish, tafakkurini o‘stirib borish kabi hislatlar millatimizning faxri, iftixoriligini ko‘rsatadi. Buni Ulug‘bekning siyomosida gavdalantiradi. Inson hayotini ilmga bag‘ishlashi kerakligini, uni yuksaklarga ko‘tarishini aytib o‘tadi. Biz bu asardan, tariximizdan xulosa chiqarib, kelajakka to‘g‘ri qadam qo‘yishimiz kerakligini o‘rganamiz. Yosh avlodni kelajakka tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, urf-odatlar, an‘analar, tarbiya haqidagi g‘oyalar, hayotiy tajribalar, o‘zbek xalqining pedagogikasida mujassamdir. Biz o‘zbek xalqining qahramonlari Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug‘bek, Zahriddin Muhammad Bobur, Amir Temur, Chiroq, To‘maris, jadidchilarimiz, shoirlarimiz, o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat, faxr-iftixor namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma‘rifiy-biografik roman “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati – Toshkent, 2009-359 b.
2. Mirzo Ulug‘bek haqida (1394-1449) – 5 yanvar 2019. <http://zamonaviy.com.>news>miuz>.
3. Maqsud Shayxzoda Mirzo Ulug‘bek. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. “100 mashhur olim” Toshkent – 2016. 4-b.
5. Quronov Dilmurod. “Adabiyot nazariyasi asoslari”. Toshkent – 2018. 248-b.
6. Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov. “Adabiyot”. Ikkinchi nashri. Toshkent – 2010. 198-b.
7. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>